

Umar Xayyomning ta'lim va tarbiyaga oid fikrlari

Azizaxon Orifjon-qizi G'ulomova
Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk Sharq mutafakkiri Umar Xayyomning hayoti, ilmiy faoliyati hamda uning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlarini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada Umar Xayyomning nafaqat shoir sifatidagi o'rni, balki matematik, astronom va faylasuf sifatidagi xizmatlari ham tahlil qilinadi. Uning ilmga bo'lgan munosabati, aqlni eng muhim mezon sifatida ko'rishi, jaholatni jamiyat taraqqiyotining eng katta to'sig'i deb baholashi asosiy masala sifatida ko'rsatib beriladi. Annotatsiyada Xayyomning yoshligida olgan ta'limi, mashhur ilmiy markazlarda bo'lib, zamonasining yetuk olimlaridan saboq olgani haqida ham ma'lumot beriladi. Uning algebra va astronomiya sohalaridagi kashfiyotlari, xususan, tenglamalar nazariyasiga qo'shgan hissasi va Jaloliy taqvimini tuzishda ishtirok etgani alohida qayd etiladi. Shu bilan birga, ruboiylarida aks etgan insonparvarlik, hayotning mazmuni, aql va adolat masalalari ochib beriladi. Maqolada Umar Xayyomning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan baholanadi. U inson kamolotini ilm, aql va axloq birligida ko'rgan mutafakkir sifatida talqin etiladi. Xayyomning ilmga chorlovchi, mustaqil fikrlashga undovchi va jaholatga qarshi kurashni targ'ib qiluvchi g'oyalari bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi. Annotatsiya Xayyom merosining bugungi kun uchun ham dolzarbligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Umar Xayyom, ta'lim, tarbiya, ilm, aql, axloq, ruboiy, komil inson, ustoz-shogird, jaholat, falsafa

Omar Khayyam's thoughts on education and upbringing

Azizakhon Orifjon-kizi Gulomova
Scientific advisor: M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article is devoted to the life, scientific work of the great Eastern thinker Omar Khayyam, as well as his views on education and upbringing. The article analyzes not only Omar Khayyam's role as a poet, but also his services as a mathematician, astronomer and philosopher. His attitude to science, his view of intelligence as the most important criterion, and his assessment of ignorance as the

greatest obstacle to the development of society are highlighted as the main issues. The abstract also provides information about the education that Khayyam received in his youth, his stay in famous scientific centers and his lessons from prominent scientists of his time. His discoveries in the fields of algebra and astronomy, in particular, his contribution to the theory of equations, and his participation in the compilation of the Jalali calendar are especially noted. At the same time, the issues of humanity, the meaning of life, reason and justice reflected in his rubaiyats are revealed. The article evaluates Omar Khayyam's views on education from the perspective of modern pedagogy. He is interpreted as a thinker who saw human perfection in the unity of science, reason and morality. It is argued that Khayyam's ideas, which call for knowledge, encourage independent thinking and promote the fight against ignorance, are of great importance in the upbringing of today's young generation. The annotation serves to show the relevance of Khayyam's legacy for today.

Keywords: Omar Khayyam, education, upbringing, science, reason, morality, rubaiyat, perfect person, teacher-student, ignorance, philosophy

Umar Xayyom nomi tilga olinganda, ko'pchilikning ko'z oldiga darhol Sharq mumtoz adabiyotining mashhur janri bo'lgan ruboiy keladi. Ruboiy deyilganda esa, bu janrning eng buyuk ustasi bo'lgan Umar Xayyom esga tushadi. Bu bejiz emas. Chunki Abulqosim Firdavsiy masnaviy janrini, Hofiz Sheroziy esa g'azal janrini yuksak darajaga ko'targan bo'lsa, Umar Xayyom ruboiyni shunchalik mukammal darajaga olib chiqqan. Shuning uchun ham oradan deyarli o'n asr o'tsa ham, ruboiy janrida hali hech kim Xayyom darajasiga yetib bora olmagan. Ruboiy fikr va tuyg'ularni qisqa, lekin chuqur ifodalaydigan she'riy janr hisoblanadi. Shu sababli u asrlar davomida Sharq mumtoz she'riyatining yetakchi janrlaridan biri bo'ib kelgan. Ruboiyning shakllanishi va rivojlanishida ko'plab buyuk ijodkorlar muhim rol o'ynagan. Jumladan, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Abusaid Abulxayr, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy va Amir Xusrav kabi mashhur shoir va mutafakkirlar bu janr taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Amir Xusrav Dehlaviy, Xoqoniy Shervoniy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Mirzo G'olib kabi dunyoga mashhur shoir va mutafakkirlar nomi bilan ruboiy janri chambarchas bog'iqdir. Ruboiyning Sharq adabiyotida qanchalik katta o'rin tutganini shundan ham bilish mumkin. Ruboiy olam va inson muammolarini falsafiy jihatdan aks ettiradi. Shu sababli u she'riyatning falsafiy janri sifatida mashhurdir. Chunki katta va chuqur mazmuni qisqa shaklga joylashtirish faqat kuchli falsafiy fikr orqali amalga oshadi.

Shuning uchun ham akademik G'afur G'ulom ruboiy haqida shunday degan: "Katta-katta mazmunlarni siqib, to'rt satrga joylashtirish mahorati ruboiyga xosdir. Bir tomchida ummonni, bir uchqunda quyoshni ko'rsatish ruboiyning o'ziga xos xususiyatidir Hikmat va falsafa ruboiyning asosiy mohiyati bo'lgani uchun u jahon she'riyatining mashhur janrlaridan biriga aylangan. Hozirgi kunda dunyoning turli burchaklarida ruboiy muxlislarini uchratish mumkin. Buyuk matematik, astronom, faylasuf va shoir sifatida mashhur bo'lgan Umar Xayyomning to'liq ismi G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriydir.

U 1048-oil 18-mayda Nishopur shahrida chodir tikuvchi oilada tug'ilgan. Uning "Xayyom" taxallusi ham otasining kasbidan kelib chiqqan bo'lib, "chodir tikuvchi" degan ma'noni anglatadi. Yoshligida Balx shahriga kelib, o'sha davrning mashhur olimlaridan Muhammad Mansur qo'lida ta'lim olgan. Saljuqiylar davrida taxt uchun kurashlar kuchaygach, Balxni tark etib, avval Samarqand qozikaloni Abu Tohir huzurida, keyin esa Buxoro hokimi Shamsulmulk Qoraxoniy saroyida yashagan. U haqda yozilgan qadimgi manbalarda uning juda kuchli xotirasi, favqulodda iste'dodi va oldindan bashorat qilish qobiliyati haqida so'z yuritiladi. Masalan, manbalarda shunday deyiladi: "U Isfahonda bir kitobni yetti marta o'qigan. Nishopurga qaytgach, uni yoddan yozib chiqqan. Asl nusxasi bilan yoddan yozilgani orasida hech qanday farq bo'lmagan".

Sharq adabiyotida ruboiy janri juda muhim o'rin tutadi. Bu janr orqali shoirlar olam va inson haqidagi muammolarni falsafiy jihatdan ifodalaganlar. Ruboiy qisqa bo'lsa ham, mazmuni chuqur bo'ladi. Shu sababli u falsafiy she'riyat janri hisoblanadi. Akademik G'afur G'ulom ruboiyni "katta mazmuni to'rt misraga sig'dirish san'ati deb ta'riflagan. Uninge, ruboiyda tomchida ummonni, uchqunda quyoshni ko'rsatish mumkin. Ruboiy hikmat va falsafaga boy bo'lgani uchun butun dunyoda mashhur bo'lib ketgan. Bugungi kunda ham dunyoning turli joylarida ruboiy muxlislari bor. Umar Xayyom buyuk matematik, astronom, faylasuf va shoir bo'lgan. Uning to'liq ismi G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy.

U 1048-yil 18-mayda Nishopur shahrida tug'ilgan. Otasi chodir tikuvchi bo'lgan, shuning uchun unga "Xayyom" (chodir tikuvchi) taxallusi berilgan. Yoshligida Balxda mashhur olimlardan ta'lim olgan. Keyinchalik u Samarqand va Buxoroda yashab, ilm bilan shug'ullangan. U juda kuchli xotiraga ega bo'lgan, kitobni bir necha marta o'qib, yodlab olgan va keyin xotirasidan qayta yozib bera olgan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy shunday hikoya qiladi: bir kuni Balxda bo'lgan ziyofatda Umar Xayyom "Mening qabrim har bahor ustimga gullar sohib turadigan joyda bo'ladi", degan. Oradan yillar o'tib, Nishopurga borganda uning qabrini ko'radi. Qabr atrofiga nok va o'rik daraxtlaridan gullar to'kilib turgan bo'ladi.. Shunda Xayyomning oldindan aytgan so'zlari ro'yobga chiqqanini ko'rib, u yig'lab yuboradi. Umar Xayyom 26 yoshida Saljuqiylar hukmdori Malikshoh va vazir

Nizomulmulk taklifi bilan Isfahonga boradi va rasadxona tashkil qiladi. Shu yerda olimlar bilan birga yangi taqvim tuzadi. Bu taqvim keyinchalik Yevropada qabul qilingan Grigoriy taqvimidan ham aniqroq bo'lgan.

Umar Xayyom o'zini Ibn Sinoning shogirdi deb bilgan. Ibn Sinoning asarlarini tushuntirib bergan, ayrimlarini fors tiliga tarjima qilgan va sharhlagan. U "Borliq haqida risola", "Koinot va uning vazifalari haqida risola" kabi falsafiy asarlar yozgan. U butun umr Ibn Sinoning ilmiy qarashlarini davom ettirgan. Rivoyatga ko'ra, Umar Xayyom Ibn Sinoning "Ash-shifo" kitobini qo'lida tutgan holda vafot etgan. (1123 yil 23 dekabr) XII asr fors-tojik nasrining noyob asarlaridan biri bo'lgan "Navro'znoma" asarida Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, Sharq xalqlarining bu bayram bilan bog'liq urf-odat va marosimlari keng yoritilgan. Asarda Navro'z haqida ko'plab hikoya va rivoyatlar ham keltirilgan.

Qiziq tomoni shundaki, Umar Xayyom umrining asosiy qismini matematika, astronomiya va falsafa kabi fanlarga bag'ishlagan bo'lsa-da, aynan u charchagan paytlarida daftar chetlariga yozib qo'ygan ruboiylari uni butun dunyoga mashhur qildi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, ruboiy janriga birinchi bo'lib chuqur falsafiy mazmuni Abu Ali ibn Sino singdirgan. Keyinchalik Umar Xayyom azaliy va abadiy hayot, olam va inson muammolari haqida falsafiy ruboiylar yaratib, bu janrning eng yirik ustoziga aylandi. U o'zidan oldingi ruboiylardan ilhom oldi, ularning tajribasini umumlashtirdi va o'zining kuchli iste'dodi hamda chuqur bilimi bilan ruboiy janrini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu orqali Sharq she'riyatida falsafiy fikr yanada chuqurlashdi va rivojlandi.

Avval tafakkurda tug'ilib, keyin qalb ko'riga yo'g'rilgan Umar Xayyom ruboiylari, bir so'z bilan aytganda, olam va odam haqida. Shoir dunyo o'zgarishlariga dono va vazminlik bilan, biroz afsus va beparvolik aralash nigoh bilan qaraydi: agar dunyoni o'zgartirish qo'lingdan kelmasa, u uchun kuyinish behuda, deb hisoblaydi. Uningcha, tug'inish va o'lim, yaxshilik va yomonlik, zulm va adolat barchasi o'z tabiiy qonuniyatiga bo'ysunadi:

Biz bo'lsak ham, bo'lmasak ham, jahon baribir bo'ladi, Bizdan na nom qoladi, na nishon qoladi.

Biz ilgari yo'q edik, bundan zarar ko'rmadi dunyo,

Endi yo'q bo'lsak ham, baribir davom etadi u.

Bu ruboiylar hayotiyliigi, real insoniy intilishlar, dard va tuyg'ularni aks ettirgani uchun ham yurakka yaqin. Shoir haqiqat ko'ziga tik qarab gapiradi. U dunyoning mohiyati, hayotning mazmuni va tiriklikning ma'nosi haqida aniq va ravshan fikr yuritadi. Bu ruboiylar shoirona xayolot, mavhum osmoniy tasavvurlar, an'anaviy romantika mahsuli emas, balki qaynoq hayot sinovlarida pishgan chin insoniy kechinmalarning hosilasidir:

Dunyo degani azob, tiriklik esa g'am, Taqdir degani balo, zamon - zulm va sitam. Xullas, bu jahon holiga qarab shuni ko'raman: Tinch va osoyishta odam yo'q, bo'lsa ham juda kam.

Tabiatda bo'lgani kabi, hayotda ham hamma narsa - tug'ilish va o'lim, quvonch va qayg'u, yoshlik va keksalik, orzu va armon - doimo bir-birini almashib turadi. Shu sababli, masalan, bahor hadya etgan bir zumlik shodlikdan ilhomlanish shoir uchun hodisaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni yurakni ko'tarinki hislarga to'ldirgan bu quvonch va shuhratning o'tkinchi ekanidir. U shuni anglatadiki: har qanday quvonch ortida qayg'u, har qanday g'am ortida esa taskin bo'lishi mumkin. Shoir buni quyidagicha ifodalaydi:

Tong shamoli gul etagini yirtadi,
Bulbul uchib kelib g'unchadan quvonadi.
Gul soyasida o'tir, u qumga singib ketsa,
Bizning ham vujudimiz ertaga tuproq bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, Umar Xayyom ruboiylari orqali inson va hayot haqidagi eng muhim haqiqatlarni ochib beradi. U hayotni bezab ko'rsatmaydi, balki boricha tasvirlaydi: tug'ilish va o'lim, quvonch va qayg'u, yoshlik va keksalik, orzu va armonning barchasi tabiiy va muqarrar jarayon ekanini anglatadi. Shoir uchun eng muhim narsa haqiqatni yashirmasdan aytish va insonni o'ylashga majbur qilishdir. Umar Xayyom insonni o'tkinchi dunyoga aldanmaslikka, hayotni anglab yashashga chaqiradi. Uning ruboiylarida quvonch ham, g'am ham abadiy emasligi, inson umrining qisqaligi va qadrini bilib yashash kerakligi g'oyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bois Xayyom asarlari faqat she'riy go'zalligi bilan emas, balki chuqur falsafiy mazmuni bilan ham qimmatlidir. Menimcha, Umar Xayyom bugungi zamon odamiga ham juda yaqin shoirdir. Chunki u asarlarida insonning ichki kechinmalari, hayotdan ko'ngli to'lasligi, baxt izlash yo'li va adolatga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi. Uning ruboiylari odamni hayot haqida chuqurroq o'ylashga, har bir lahzani qadrlashga va o'z umrining mazmunini topishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umar Xayyomning ruboiylari Sharq falsafiy she'riyatining eng yorqin namunalaridan biridir (Cherkasov, 80-81-bet).
2. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
3. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
4. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. *Science and Education*, 6 (12), 17-21.

5. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.

6. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).

7. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.

8. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.

9. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.

10. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.

11. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.

12. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.

13. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.

14. УМНОВ, Д. Г., КАРИЕВ, А. Д., ТЕШАБОВ, А. Ю., & МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.

15. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DИДАКТИК ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.

16. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.

17. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.

18. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.

19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.
25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.
26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.
27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.